Shuningdek, tayanch kompetensiyalar tarkibidagi axborot bilan ishlash kompetensiyasi, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiya, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalari, turli fanlar orqali egallangan bilimlarni turli hayotiy vaziyatlarga mos ravishda qo'llashni vafanlarning o'zaro uzviy aloqasini integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Demak, integrativ yondashuv ham ta'limning zamonaviy usuli sifatida pedagogik ta'limda muhim o'rin tutadi va tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Xorijiy tillarni kommunikativ yondashuv asosida o'rganish masalasi XX asrning boshlaridayoq G'arbda markaziy muammolardan biri sifatida tadqiq etilgan va qator olimlar (N.Xomskiy, D.Xayms, Dj.Vimann, K.Dantsiger, M.Kanale, V.Kupa, R.Rubin, M.Svey, V.Ulrix, G.Fridrix, B.Shpitsberg, U.Shuts va boshqalar) tomonidan o'rganila boshlangan edi. Bu muammo, ayniqsa, M.N.Vyatyutnev, I.A.Zimnyaya, N.I.Gez, Y.I.Passov, I.L.Bim, V.V.Safonova, Dj.Savinyon, G.Pifo, D.Xayms, D.Raven va boshqalarning ishlarida keng tadqiq etildi. O'tgan asrning 70-yillarida G'arb mamlakatlarida kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik nazariy asoslari R.Berintoft, D.Jiro, X.Krumm, X.Pifo, V.Rivers, D.Keyndler, D.Sheyls, V.Ekk, I.Bim, G.Kolshanskiy, S.Melnik, Y.Passovlar tomonidan ishlab chiqildi [8; 9-15-b.].

Aynan til ta'limida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish masalasi N.B.Ishxanyan, L.S.Znikina, S.I.Shevchenko, S.A.Chichilanova, L.M.Voytenko, S.A.Kurilova, Y.Y.Kudryavtseva, T.P.Popova, N.A. Rotovalarning tadqiqot ishlarida o'rganib chiqilgan. Xususan, T.P.Popovanning tadqiqot ishida «kompetensiya» va «kompetentlilik» terminlari o'rtasidagi farqlarni ochib berishga harakat qilingan. Shu bilan bir qatorda, kommunikativ



kompetentsiyaning maqsadi, uning turlari, strukturasi va darajalari guruhlariga ajratilgan va ilmiy asoslab berilgan.

Respublikamizga chet tillarni kommunikativ yondashuv asosida o'qitish dastlab yetakchi metodist olimlar J.Jalolov, T.Q.Sattorovlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, J.Jalolov bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishni ustuvor ta'limiy muammo sifatida [5; 3-bet.], T.Q.Sattorov esa bo'lajak chet til o'qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish masalalarini o'rgangan. Keyingi yillarda kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha S.I.Kazakbayeva, D.Sh.Olimova, M.A.Berdiyeva, D.A.Kurbanbayev, G.T.Maxkamova, X.A.Mamatkulov, F.Sh.Alimovlarning tadqiqot ishlari bajarildi [9; 3-bet].

«Kompetensiya», «kompetentlik» tushunchalari tilshunoslikda ilk bor XX asr o'rtalarida (1955 yilda) N.A.Xomskiy tomonidan qo'llangan bo'lib, tilni ishlatish jarayonida «faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida» talqin etilgan, «kompetensiyaviy yondashuv» esa ta'limda natijaviylikni ko'rsatuvchi omil sifatida qayd etilgan. AQShda esa o'tgan XXasrning 60-yillarida mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash maqsadidagi faoliyatga asoslangan ta'lim sifatida (performance-based education) yuzaga kelgan va Webster lug'atida o'z aksini topgan edi.

Respublikamiz ta'lim tizimiga ushbu tushuncha 90-yillardan boshlab kirib kela boshladi. Mutaxassislar tomonidan turlicha, jumladan, layoqat (J.Jalolov), omilkorlik (T. Sattorov), mahorat (pedagogikada), malaka (psixologiyada) kabi tushunchalar bilan nomlanib kelinmoqda.

Hozirgi kunda kompetensiya so'zi layoqat, kompetentlik layoqatlilik, ta'limga kompetensiyaviy yondashuv esa egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy hamda ijtimoiy faoliyatlarda amaliy qo'llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim yo'nalishi, deb tushunilmoqda. Demak, til ta'limida kompetensiyaviy yondashuv ta'lim oluvchilarning o'rganayotgan til materiallaridan va olingan axborotlardan o'z hayotiy faoliyatida oqilona foydalana olish, shu tilda o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda mustaqil ifodalash va nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qo'llay olish ko'nikma-malakalarini tarkib toptirish, ya'ni tilni maqsadli ravishda amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat.

Lingvodidaktikada kommunikativ kompetensiya tushunchasiga turlicha fikrlar bildirilgan (1.1-jadvalga qarang).

1.1-jadval

#### Kommunikativ kompetensiya tushunchasiga berilgan ta'riflar

№	Tadqiqotchilar	Tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta'riflar
1.	E.I.Litnevskaya	kommunikativ kompetensiya barcha nutq faoliyati turlarini egallash orqali og'zaki va yozma nutqqa asoslangan holda tilda ko'nikma va malakalardan foydalib, situatsiyali muloqotga kirisha olish jarayoni ekanligini ta'kidlaydi
2.	I.L. Bim	kommunikativ kompetensiya til o'rganishda nutq faoliyati turlaridan gapirish, tinglab tushunish, yozish va o'qishni o'z ichiga oladi
3.	B.Daniyarov	«...kommunikativ kompetensiya – xorijiy til bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llay olish layoqati» deb hisoblaydi

4.	L.T.Ahmedova va Y.A.Lagay	«...kommunikativ kompetensiya – til sohibi bilan chet tilda muloqot qilishni amalga oshirish uchun tayyor bo'lishlik hamda maktab o'quvchilarining tili o'rganilayotgan mamlakatning tili va madaniyatini yaxshi anglagan holda o'zining davlatini ham muloqot jarayonida tanishtira olish qobiliyatidir»
----	---------------------------	---

N.D.Galskova va N.I.Gezlarning ta'rificha, «...kommunikativ kompetensiya XX asrning 1970 yillaridan boshlab insonning kognitiv va shaxslararo tayanch kommunikativ ko'nikmalar o'rtasidagi farqni aniqlashga bo'lgan harakatlar natijasida paydo bo'lgan. Keyinchalik ushbu tushuncha mazkur kompetensiyaning har xil modellarning vujudga kelishida namoyon bo'ldi. Shunday modellardan biri V.Ekk modeli bo'lib, uning tarkibiy komponentlariga lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, sotsiomadaniy, strategik va ijtimoiy subkompetentsiyalarni kiritish mumkin» [4; 68-b.].

1.2-jadval

#### Kommunikativ kompetensiyaning komponentlari talqiniga doir qarashlar

№	Tadqiqotchilar	Kommunikativ kompetensiya komponentlari talqini
1.	E.I.Passov	kommunikativ kompetensiya komponentlarini perseptiv va produktiv turlarga ajratgan
2.	E.L.Bim	kommunikativ kompetensiyaning lingvistik, tematik, sotsiomadaniy, ijtimoiy va o'quv kompetensiyalar strukturalarini tavsiya etadi
3.	E.Salovova	kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlariga ijtimoiy, lingvistik, sotsiolingvistik, sotsiomadaniy, strategik, diskursiv kompetensiyalar kiradi
4.	M.Kanale, M.Sveyin	kommunikativ kompetensiya grammatik, strategik, sotsiolingvistik kompetensiyalardan iborat
5.	J.Jalolov, G.Mahkamova va Sh.Ashurovlar	CEFRning oltita darajasi bo'yicha xorijiy tilni o'qitishda kommunikativ kompetensiyaning, (domestic model) komponentlarini lingvistik kompetensiya (til va nutq birliklari va ularning ishlatish qoidalari), sotsiolingvistik kompetensiya (sotsiomadaniy, diskursda tildan foydalanish), pragmatik kompetensiya (ijtimoiy, diskurs, strategik va sotsiomadaniy) turlarga bo'ladilar
6.	L.T.Ahmedova va Y.A.Lagay	kommunikativ kompetensiyalarni lingvistik, sotsiolingvistik (sotsiomadaniy), pragmatik (diskursiv) komponentlarga ajratadilar
7.	D.A.Kurbanbayev	lingvistik omilkorlik, leksik omilkorlik, grammatik omilkorlik, semantik omilkorlik, fonologik omilkorlik, orfografik omilkorlik, orfoepik omilkorlik, sotsiolingvistik omilkorlik, diskursiv omilkorlik, strategik omilkorlik, ijtimoiy omilkorlik, sotsiomadaniy omilkorlik, fan bo'yicha omilkorlik, kasbiy omilkorlik, ekzistentsial omilkorlik

Jadvaldan ko'rinadiki, D.A.Kurbanbayev «kommunikativ kompetensiya» terminini «kommunikativ omilkorlik» deb ataydi. Fikrimizcha, omilkorlik atamasidan ko'ra kompetensiya atamasini qo'llash maqsadga muvofiq. Chunki til ta'limida kompetensiya layoqatdir.

A.T.Irisqulov kommunikativ kompetensiyani lingvistik (grammatik), sotsiolingvistik va strategik komponentlarga ajratadi va o'z tarkibida quyidagilarni qamrab olishini ham ta'kidlaydi:

- 1) tilga oid materialni chuqur o'zlashtirganlik;
- 2) ijtimoiy-lingvistik yoki sotsiolingvistik omilkorlik;
- 3) maqsadga yo'naltirgan omilkorlik.

M.Kanale, M.Sveynlarning fikricha, kommunikativ kompetensiya grammatik, strategik, sotsiolingvistik kompetensiyalardan iborat. Keyinchalik M.Kanale o'z modeliga diskurs kompetensiyasini ham qo'shdi. Hozirgi kunda kommunikativ kompetensiyaning to'rtta asosiy komponentlari sifatida: lingvistik, sotsiolingvistik, diskurs va strategik kompetensiyalarga ajratmoqdalar. Bildirilgan fikrlar kommunikativ kompetensiyaga e'tibor va qarashlar ham juda xilma-xil bo'lganligini ko'rsatadi.

Biz Y.Solovova, V.Ekk, M.Kanale, M.Svey, J.Jalolovlarning fikrlariga qo'shilgan holda, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda lingvistik kompetensiya (Linguistic competence), sotsiolingvistik kompetensiya (Sociolinguistic competence), diskursiv kompetensiya (Discourse competence), strategik kompetensiya (Strategic competence), sotsiomadaniy kompetensiya (Sociocultural competence), pragmatik kompetensiya (Pragmatic competence) komponentlarini muhim deb hisoblaymiz. Davlat Ta'lim Standartlari (DTS) talablari ham bunga uyg'un keladi.

Kommunikativ kompetensiya tarkibida chet tilida samarali muloqot ko'nikma, malaka va qobiliyatlarni egallaganlik darajasini ko'rsatuvchi belgi sifatida pragmatik kompetensiya o'z tarkibida diskurs kompetensiyani va strategik kompetensiyani qamrab olib, chet tilida so'zlashuvi, nutqiy faoliyatda bevosita ishtirok etuvchilarning nutqiy harakatlarida va maqsadga yo'naltirilgan diskurs, nutq tuzishi va ifodalashida eng muhim bilim, ko'nikma va shaxsiy, lingvistik va kommunikativ (muloqotga, vaziyatga xos ijtimoiy to'g'ri yoki mos deb qabul qilingan) bilim-malakalarning majmui sifatida namoyon bo'ladi.

Pragmatika ikkinchi tilni o'zlashtirish (SLA) tadqiqotlarida muhim o'rin egalladi. Tilaro pragmatika (interlanguage pragmatics), shuningdek, ikkinchi til (L2) pragmatikasi sifatida ham tanilgan, ikkinchi tilni o'zlashtirishning alohida kichik sohasi sifatida rivojlangan bo'lib, uning asosiy o'rganish maydoni ikkinchi til foydalanuvchilarining tilni bilishi va ijtimoiy o'zaro aloqada foydalanishini o'rganish bo'lib, ko'pincha alohida yoki rivojlanuvchi (istiqbolli) aspektda o'rganiladi. Ikkinchi til pragmatikasi bevosita kommunikativ kompetensiya modellari bilan bog'liq. 1983 yilda Tomas va Lich lingvistik bilim (pragmalingvistik) va sotsial-madaniy bilim (sotsiopragmatik) o'rtasidagi farqlarini ta'riflash bilan mashhur bo'lib, lingvistik shakllarni o'zlashtirishdan tashqari, tildan ijtimoiy jihatdan mos tarzda foydalanish qobiliyati muhimligini ham e'tirof etgan.

Masalan, kimdandir yaxshilik so'raganda, ya'ni iltimos qilganda, so'rash, iltimos qilishni bajarish uchun zarur bo'lgan shakllar va lug'atni bilishdan tashqari (grammatik kompetensiya) foydalanuvchilar so'rashning mahalliy madaniyat me'yorlariga, o'ziga xos xususiyatlariga muvofiqligini hisobga olgan holda o'zlarining til tanlashlarini hisobga olishlari kerak – vaziyat, so'rashning o'zi va ular kimdan yordam so'raganlari (pragmatik kompetensiya). Kasper va

Roselarning fikricha, grammatik va pragmatik kompetensiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq va til o'rganish jarayonida teng e'tibor talab etiladi. Biroq, yillar davomida ma'lum bo'ldiki, sinfdagi grammatik kompetensiya pragmatik bilimlarni rivojlantirish hisobiga qadrlanadi va eng katta e'tibor beriladi [3; 233-236 -b.]. Garchi pragmatik qoidalar ko'pincha turli madaniyatlarda farq qilsa-da, olimlar bu ko'nikmani rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi chunki pragmatikaga oid maxsus yo'riqnomalar kamdan-kam hollarda chet tili o'quv dasturlariga kiritiladi va tijorat darsliklarida maqsadli tilning pragmatik xususiyatlari kamdan-kam hollarda chuqur mazmunda yoritiladi.

Ikkinchi til pragmatikasi 1970-yillarning oxiridan boshlab faol tadqiq qilinmoqda. Kasper, Rose va Blum Kulkalarning fikricha, Interlingvistik pragmatika, Til o'qitishda pragmatika va ikkinchi tilda pragmatik rivojlanish kabi dastlabki asarlar ikkinchi til pragmatistlarining jamoadagi jozibadorligi va dolzarbligini oshirishga yordam berdi [6; 149-b.]. Ushbu asarlar, shuningdek, o'sha davrning ba'zi yirik aralash tadqiqotlarini o'z ichiga oladi va "Pragmatikani o'qitish" kabi yangi asarlar sohani rivojlantirishi mumkin bo'lgan muhim fanni taqdim etadi.

Pragmatik kompetensiya sotsiolingvistik va illokatsion kompetensiyadan iborat bo'lib, ulardan birinchisi Lich (1983) sotsiopragmatik komponentiga parallel, ikkinchisi esa Lichning pragmalingvistik komponent haqidagi kontsepsiyasiga mos keladi. Kommunikativ kompetensiyaning barcha asosiy ta'riflari grammatik va pragmatik kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning alohida tarkibiy qismlari sifatida tan olgan bo'lsa-da, ularning empirik tasdiqlanishi qiyin bo'lgan. Baxman va Palmer (1982) tomonidan olib borilgan birinchi faktorli-analitik tadqiqotlardan biri ular taxmin qilgan umumiy omilni kengaytirilgan nutqda axborotni qayta ishlashni ifodalashi mumkin va ikkita subfaktorni aniqladi, biri grammatika/pragmatikaga, ikkinchisi esa sotsiolingvistikaga tegishli. Bu Kanale va Sveyn asoslarini qo'llab-quvvatlasa-da, shuni ta'kidlash kerakki, Baxman va Palmerning pragmatik kompetensiya subfaktorlari lug'at, izchillik va matnni tashkil etishni, ijtimoiy lingvistik kompetensiya subfaktorlari esa registr, tabiiylik va madaniy murojaatlarni o'z ichiga oladi. Ularning tadqiqotida nutqiy aktlarga va vaziyatning mosligiga alohida e'tibor qaratilmagan, garchi bu sohalaridagi kompetensiya suhbat reytingiga ta'sir qilgan bo'lishi mumkin.

Pragmatika va unga doir lingvodidaktik muammolarni va yondashuvlarni chet tili, shuning ichida, eng ko'p o'rganiladigan til sifatida, ingliz tili, o'qituvchilar, shuningdek bo'lajak chet tili o'qituvchilari tomonidan o'rganilishi va pragmatik instruksiyaning chet tili/ingliz tilini o'quvchilarga va talabalarga o'rgatishda ahamiyati katta hisoblanib, pragmatik kompetensiyani rivojlantirish va takomillashtirish texnikalarini va usullarini o'rganish, amaliy qo'llash va ta'lim va dars jarayonida pragmatik yo'naltirilgan mashqlarni va ularning metodik ta'minotini ishlab chiqish chet tillarini o'qitishning zamonaviy pedagogik-innovatsion vazifalar qatoriga kiradi. Agar biz chet tilida bemalol fikr-mulohaza yurita oladigan, bemalol muloqot qilaoladigan, lingvistik va dunyoviy bilimlar qatorida, har xil vaziyatlarda kommunikativ, professional, shaxsiy ko'nikma va strategiyalarni nutq jarayonida to'g'ri va mazmunli qo'llay oladigan kompetentli talabalarni, talabgorlarni va bo'lajak professionallarni tayyorlashni maqsad qilsak, uni amalga oshirish esa Davlat Ta'lim Standartlari va Respublikamizning ta'lim-tarbiya bo'yicha amalga oshiradigan qonun-hujjatlarida belgilan vazifalar qatorida, bizning, ya'ni chet tili o'qituvchilarining ham oldimizda turgan burchimizdir.

Yuqorida ko'rsatilgan va muhokama qilingan pragmatik bilim, ko'nikma va malakalarning ayrimlari chet tili, ingliz tilining yuqori darajasi foydalanuvchilari, shu qatorda malakali chet tili foydalanuvchisi sifatida, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun ham taaluqli holda (garchi CEFRning (Common European Framework of Reference) kompetensiya bo'yicha deskriptorlari foydalanuvchilar uchun umumiy olingan bo'lsa-da) bilim va malakalarining asosiy komponenti sifatida CEFR hujjatida ham alohida o'rin egallaydi.

CEFR turli malaka darajalarida til foydalanuvchilari qanday kompetensiyalarga ega bo'lishi kerakligini belgilaydi, bu o'quv dasturlarini ishlab chiquvchilarga dasturlar va materiallarni yaratish uchun yuqori darajadagi maqsadlarni aniqlashga yordam beradi. U tildan qabul qilish, ishlab chiqarish, o'zaro ta'sir qilish va vositachilik qilishda foydalanish qobiliyatini rivojlantirishda ko'mak beradi, shuningdek, tilning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik jihatlarini bilishni tavsiflovchi 80 dan ortiq masshtab va kichik o'lchovlarni o'z ichiga oladi.

<b>CEFR bo'yicha ingliz tilini bilishning umumiy darajasi “mustaqil foydalanuvchi” va “ilg'or” darajalar ta'rifi</b>
<b>C2 “Ilg'or” Oliy ma'lumotli.</b> Bu foydalanuvchilar katta ko'pchilikdan tashqarida ona tilida so'zlashuvchilar. Ular mavhum mavzularda qiyinchiliksiz gapirishlari va deyarli har qanday kiruvchi nutqni tushunishlari mumkin. Ularning pragmatik qobiliyatlari yuqori darajada rivojlangan va ular tinglovchilar va maqsadlarga qarab tildan foydalanishni aniq sozlashlari mumkin.
<b>C1 “Ilg'or” Universitet darajasi.</b> Bu foydalanuvchilar universitetda ta'lim olgan ona tilida so'zlashuvchilarga o'xshash yuqori darajada rivojlangan til qobiliyatiga ega. Ular turli mavzularda, jumladan, mavhum mavzularda nutq ishlab chiqishi va tushunishi mumkin. Ular o'z tillarini odamga va vaziyatga moslashtira oladilar, qiyinchiliksiz o'zaro aloqada bo'lishadi, hazildan foydalanishlari va nozik vaziyatlardan oson chiqishlari mumkin. Ba'zi hollarda talabalar va ingliz tilini chet tili sifatida o'qituvchi muallimlar orasida “Ilg'or” C2 darajali foydalanuvchilar ham uchraydi. C2 darajali foydalanuvchining umumiy darajasi quyidagi ta'rif orqali bayon etiladi.
<b>B2 “Mustaqil foydalanuvchi” Yuqori foaliyat darajasi.</b> Ushbu foydalanuvchilar past darajadagi ma'lumotga ega bo'lgan ona tilida so'zlashuvchilarga o'xshab ancha rivojlangan til qobiliyatiga ega. Ular tanish yoki aniq mavzularda va ma'lum darajada mavhumroq mavzularda tilni osongina tushunishlari va ishlab chiqarishlari mumkin. Ular rasmiy va norasmiy tilni farqlay oladilar va o'z tillarini suhbatdosh va vaziyatga moslashtirish uchun bir qator lingvistik vositalarga ega.

CEFR, DTS va oliy ta'lim muassasalari ichki o'quv talablaridan kelib chiqqan holda, bo'lajak chet tili, ingliz tili o'qituvchilarining bakalavriatura darajasida ta'lim oluvchi talabalar ta'lim jarayonida CEFR B2-C1 darajalarida ketma-ket kurslarda ta'lim olib, ta'limning oxirgi bosqichida C1 darajani egallashi nazarda tutilgan. Shunga asosan, bo'lajak chet tili, ingliz tili o'qituvchilarining ingliz tilini bilishning umumiy darajasi “mustaqil foydalanuvchi” va “ilg'or” darajalariga to'g'ri keladi.

**Metodologiya.** Ushbu tadqiqot bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining pragmatik kompetensiyasining tarkibi, pragmatik bilim strukturalari, ko'nikma va malakalarini egallash bo'yicha nazariy ma'lumotlar va pragmatikani amaliy chet tilini o'rganishda o'zlashtirish, o'qitish va egallashga qaratilgan turli xil fikr-mulohazalar, ma'lumotlar va tavsiyalarni nazariy, empirik o'rganish va tadqiqot uchun ma'lumotlar to'plash va ularni mazmunan ta'riflash va

tasniflash, analiz, sintez, qiyosiy lab o'rganish, tanqidiy tahlil qilish va pedagogik baholash metodlari yordamida amalga oshirildi.

**Muhokama va natijalar.** Chet tili ta'limida, ayniqsa bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ingliz tilidagi kompleks kommunikativ kompetensiyasini – lingvistik, sotsiolingvistik kompetensiya va pragmatik kompetensiyasi va ularni egallashga qo'yilgan talab, ehtiyoj va ularni o'zlashtirishni pedagogik-didaktik usullar va texnologiyalar yordamida amalga oshirish mexanizmlarini, yo'llarini va ular bo'yicha ko'rsatmalarni o'rganib tahlil qilar ekanmiz, chet tilida samarali muloqotga erishish uchun boshqa bilimlar (grammatik, so'z, lug'at boyligi) qatori nutqning ravon, tushunarli, maqsadli va mazmunli yetqazilishida va foydalanuvchilar o'rtasida mazmundor nutqiy harakatni vujudga keltirishda va uning ijtimoiy normalarga xos amalga oshirilishida pragmatik strategiyalarini rivojlantirish va pragmatik kompetentlikni rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi til mashqlari, har xil nutqiy vaziyatlar va muloqot uchun berilgan dialog, monolog, chat, so'zlashuv, rolli o'yin, matn o'qish va tahlil qilish va shu kabi boshqa inetrfaol topshiriqlarni- kommunikativ aktlarni bajarish, ona tilida so'zlashuvchilar bilan yozma, og'zaki nutqlarni amalga oshirish, shuningdek, pragmatik bilimlarni o'stirish bo'yicha seminar, taqdimot, intervyu, dars va darsdan tashqari loyiha yoki tashqi nutq faoliyatida ishtirok etish vas shu kabi bir qator funktsional-amaliy va lingvodidaktik harakatlar bajarish muhim ahamiyat kasb etishi bizning olib borgan tadqiqotimizda yana ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Samarali muloqotga erishish asosan madaniy ta'sirlar, o'zaro muloqotlarning kontekstual tabiati va ingliz tili o'zlashtirganlikning o'zi bilan ham belgilanadi. Ingliz tilida so'zlashuvchilar grammatika qoidalariga e'tibor bermasliklari mumkinligi haqidagi dominant fikr talabalar va o'qituvchilarning ingliz tilidan foydalanishga bo'lgan ishonchini oshira olmadi. Ingliz tili grammatikasi tamoyillarini e'tiborsiz qoldirish tendensiyasi noto'g'ri nutq shakllariga olib kelishi mumkin. Ko'pincha ingliz tilida so'zlashuvchilarda hatto "til hissi" ham etishmaydi.

Muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun til va formulalar haqidagi bilimlar, shuningdek, til qoidalarining o'zi yetarli emas. Ekstralingvistik omillar insonning muloqot qobiliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar orasida pragmatik kompetensiya eng muhim komponent sifatida ajralib turadi. Pragmatika tildan foydalanishni u ishlatiladigan kontekstga bog'liq holda o'rganadi. Agar kontekst ma'lum bo'lsa, tilning ma'nosini tushunish mumkin. Vaziyatning asosiy ma'nolari, taxminlari, niyatlari va maqsadlarini va faoliyat turini aniqlash qobiliyati "pragmatik kompetensiya" deganda tushuniladi. Pragmatika ma'lum bir madaniy muhit va ijtimoiy me'yorlar sharoitida so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ma'noni qurish va muvofiqlashtirishni o'rganadi. Ingliz tilini chet tili sifatida o'rganishdada (EFL) pragmatik tushunishni o'zlashtirish bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar faoliyati uchta asosiy omil bilan bog'liq: implikatsiya ta'siri, o'rganish tajribasi va individual xususiyatlar. Biroq, mahalliy bo'lmagan ingliz tili o'qituvchilarini o'qitish tajribasi, ayniqsa qishloq joylarida, EFL pragmatikasi sohasida yetarli darajada e'tiborga olinmagan. Globallashuv davrida pragmatik kompetensiyani egallash chet (FL) va ikkinchi tilni (L2) o'rganishning ajralmas jihati hisoblanadi [10; 2-bet]. Shu bilan birga, pragmatika ta'lim-tarbiya sharoitida yuzaga keladigan nutqiy aktlarga diqqat qaratadi, bu (a) o'qituvchi o'quvchilarga biror narsa haqida ma'lumot berganda tasviriy aktlar (representative acts); b) o'qituvchining ma'lum bir harakatni amalga oshirish niyatini bildirishi bilan bog'liq aktlar (commissive acts); c) adresatni (o'qituvchini) muayyan vazifani bajarishga undash uchun mo'ljallangan ko'rsatmalar (directive acts); d)

munosabatlar holatiga his-tuyg'ularini va munosabatlarini ifodalash imkonini beruvchi ekspressiv aktlar (expressive acts); va (e) munosabatlar holatidagi o'zgarishlarni tavsiflash uchun ishlatiladigan deklarativ aktlar (declarative aktlar).

Maqsadga erishish uchun nutqiy aktlarni o'rgatuvchi o'qituvchi o'quvchilarga bildiradigan fikrlarni osongina tushunishga ishonch hosil qilishi kerak. Bu maqsadlarga quyidagilar kiradi: (1) ma'lumotni yetkazish, (2) ma'lumot so'rash, (3) buyruq berish, (4) rad etish, (5) his-tuyg'ularni ifodalash, (6) ruhlantirish, (7) axborot so'rash, (8) iltimos ifoda etish, (9) tasdiqlashni so'rash, (10) birdamlik tuyg'usini ko'rsatish va (11) suhbatdoshga minnatdorchilik bildirish [2;15-bet.]. Natijada, ma'ruzachi (o'qituvchi) nutqni tartibga soluvchi qoidalarga rioya qilishi kerak. Ushbu qoidalar "kooperatsiya prinsipi" deb nomlanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, o'quv jarayonida qo'llaniladigan til, birinchi navbatda, muayyan maqsad va vazifaga xizmat qiladigan funktsional bo'lishi kerak. Ikkinchidan, o'qitish jarayonida o'qituvchilarning muloqoti Graysning jamiyat a'zolari o'rtasidagi suhbatlar asosiy tamoyillarga asoslanishi haqidagi tamoyilini o'z ichiga olishi kerak. Ushbu asosiy tamoyil hamkorlik tamoyili sifatida tanilgan bo'lib, u nutqning to'rt xil maksimlarida, ya'ni sifat (quality), miqdor (quantity), moslik (relevance) va uslub (manner) maksimallarida namoyon bo'ladi.

Sifat maksimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: (a) o'quv materialining to'g'riligini ta'minlash; (b) noto'g'ri deb hisoblangan bayonotlardan voz kechish; (c) ishonchli dalillarga ega bo'lmagan ma'lumotlarni tarqatishdan bosh tortish. Miqdor maksimini amalga oshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi: (a) o'quv materiallari talabalar ehtiyojlariga javob berishini ta'minlash va (b) o'quv materiallari talabalar ehtiyojlaridan oshmasligini ta'minlash. Moslik maksimi o'quv materialini muhokama mavzusi bilan bog'lashga harakat qilishni o'z ichiga oladi. Usul maksimi o'quv materialini soddalashtirishga urinishlar bilan bog'liq, jumladan (a) noaniqlikdan qochish, (b) ikki tomonlama ma'nodan qochish, (c) qisqalik va (d) muntazamlilikni saqlash. Uchinchisi - implikatsiya. O'qituvchilarning barcha bayonotlari va tili "chiroyli va qulay" emas, balki bevosita hamkorlik tamoyili sifatida ifodalanadi. Muayyan sharoitlarda o'qituvchilar g'oyalarni bilvosita (ko'zda tutilgan ma'no) yetkazish orqali ushbu tamoyillarni "buzishlari" mumkin. Hamkorlik prinsipi maksimlarni e'tiborsiz qoldirish g'oyalar yoki xabarlar bilvosita yetkazilganda, bayonotlar aniq ma'nolardan farq qiladigan yashirin ma'nolarga ega bo'lganda va bunday g'oyalarning ma'nosini tushunish ko'p jihatdan nutq kontekstiga bog'liq bo'lgan implikatsiyalarga olib kelishi mumkin. Misol uchun, doska iflos bo'lsa, o'qituvchi ingliz tilida shunday aytishi mumkin: "please clean the blackboard", lekin o'qituvchi uchun bunday vaziyatda shunday deyish juda ham qulaydir: "I will write something on the blackboard", ya'ni o'qituvchi o'quvchilardan bilvosita ya'ni ishora uslubida maqsadini ifodalashi mumkin. Implikaturalar o'qituvchi va talaba o'rtasidagi uyg'un munosabatlarga yordam beradi chunki ular muloqotda doimiy e'tibor va o'zaro hurmatni talab qiladi. Bundan tashqari, kuchli implikativ ko'nikmalarga ega bo'lgan o'qituvchilar o'z o'quvchilarining madaniy xabardorligini namoyish etishlari kerak chunki kommunikatorlar o'rtasida umumiy madaniy bilimlar mavjud bo'lganda, implikatsiyalar eng samarali bo'ladi.

Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatish vazifasi chet tili o'qituvchilarning o'z zimmasiga olgan murakkab vazifa bo'lib, talabalarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari kerak. Ingliz tili o'qituvchilari tilning ma'lum bir muhitda qanday qo'llanilishini tushunish va tildan to'g'ri foydalana olish uchun pragmatikani tushunishlari kerak. Xullas, pragmatikani o'rganish jamiyatda odamlarga turli kontekstlarda nimani, qanday,

kimga va qachon ifoda etishni aniqlashga imkon beruvchi kompetensiyalar majmuasini o'z ichiga oladi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytganda, kommunikativ kompetensiya doirasida faoliyat ko'rsatadigan pragmatik kompetensiya ona tilida tabiiy muloqot bilan tanishish, shuningdek, eksplisit va implisit o'qitish orqali sinfda yoki auditoriyada amalga oshiriladigan nutq vazifalarini modellashtirish va bajarish orqali rivojlanishi mumkin. Ko'pgina ikkinchi til yoki ingliz tili muloqot vaziyatlarida pragmatik kompetensiya ona tilida so'zlashuvchilarning pragmatik xatti-harakati asosida yotgan sotsiolingvistik va sotsial-madaniy omillarni anglash va tanqidiy idrok etish orqali rivojlanadi. Asosan, talabalar, agar ular bunday xatti-harakatni boshqaradigan e'tiqodlar, qadriyatlar va me'yorlarning madaniy tizimini tushunsalar, ona tilida so'zlashuvchilarning pragmatik xatti-harakatlarini yaxshiroq tushunishlari va qadrlashlari kutiladi. Sinf va auditoriyadagi ba'zi mashg'ulotlar, masalan, rolli o'yinlar, o'quvchilarga o'zlarini qanday tanishtirish, nimanidir tushuntirish, shikoyat qilish yoki so'rashni ko'rsatish ham pragmatik kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchilar faqat talabalarga katta miqdordagi lug'at va grammatikani o'rgatish o'rniga, o'quvchilarga til ko'nikmalarini amalda qo'llash imkonini beradigan ssenariylarni yaratishi kerak. Bundan tashqari, talabalar olgan bilimlarini - lingvistik yoki pragmatik - amalda qo'llash uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishlari kerak. Qolaverdi, talabalarining bilimini oshirish vositasi sifatida haqiqiy til namunalaridan foydalanish va sinfda pragmatik farqlar haqida munozaralarni boshlash tavsiya etiladi. Bundan tashqari, o'qituvchilar o'quvchilarga haqiqiy pragmatik materialni o'zlashtirishlari uchun pragmatik model bo'lib xizmat qiladigan keng ko'lamli faoliyat turlarini taklif qilishlari kerak.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Alimova K., Brewerton B., Mukhammedova N. Becoming a Teacher. Trainees' Coursebook. – T. Fan va texnologiya, 2016. – 236 p.
2. Bäckström, S.A dogma of speech act theory. Inquiry//Routledge Taylor&Francis.– London,2020.–№10.–P.1–17. <https://doi.org/10.1080/0020174X.2020.1724563>
3. Bardovi-Harlig, K. and Dörnyei, Z. Do Language Learners Recognize Pragmatic Violations? Pragmatic versus Grammatical Awareness in Instructed L2 Learning//TESOL Quarterly. – USA, 1998. – №32-2. – P. 233–236.
4. Galskova N.D., Gez N.I. Teoriya obucheniya inostrannim yazikam. Lingvodidaktika i metodika ucheb.posobiye dlya stud.lingv.un-tov i fak.in.yaz.vissh.ped.ucheb.zavedeniy/N.D.Galskova, N.I.Gez.-3-e izd.,ster. – M. Izdatelskiy sentr Akademiya, 2006. – 336 s.
5. Jalolov J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh. S. English Language Teaching Methodology (Theory and Practice). – T. Fan va texnologiya, 2015. – 336 p.
6. Kasper, G. Developmental Issues in Interlanguage Pragmatics//Studies in Second Language Acquisition. – Cambridge, 1996. – №18 (2). – P. 149–69.
7. Nurmanov A.T. Talabalarining samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari (auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar misolida): Avtoreff...diss. ...ped.fan. dokt. – T., 2017. – 29 b.
8. Popova T.P. Formirovaniye inoyazichnoy kommunikativnoy kompetentsii u studentov zaonchnogo otdeleniya yazikovogo vuza: monografiya/ T.P. Popova. – N. Novgorod. Nijegorod.gos.un-t im.N.I.Lobachevskogo, 2013. –186 s.



9. Riskulova K.D. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi: Avtoref. diss. ...ped.fanlar.dokt. – T., 2017. – 62 b.
10. Taguchi, N. "Contextually" speaking: a survey of pragmatic learning abroad, in class, and online//System.–Amsterdam, 2015.–№48.–P.3–20.
11. <https://americanenglish.state.gov/resources/teaching-pragmatics>
12. <https://teachingenglishwithoxford.oup.com/2018/10/03/learning-and-teaching-pragmatics/>

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 3 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).